

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MATEMATIKA INSTITUTI,
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

XASHIMOV ABDUKOMIL RISBEKOVICH

**UCHINCHI TARTIBLI QO‘SHMA TIPDAGI STATSIONAR VA
NOSTATSIONAR TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY
MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika tenglamalari

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (ДСс) диссертации
Content of the of Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Xashimov Abdukomil Risbekovich	3
Uchinchi tartibli qo'shma tipdagi statsionar va nostatsionar tenglamalar uchun chegaraviy masalalar	
	27
Хашимов Абдукомил Рисбекович	
Краевые задачи для стационарного и нестационарного уравнения третьего порядка составного типа	
	51
Khashimov Abdukomil Risbekovich	
Boundary value problems for stationary and non-stationary equations of the third order of the composite type	
	55
E'lon qilingan ishlar ro'yxati	
Список опубликованных работ	
List of published works	

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MATEMATIKA INSTITUTI,
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

XASHIMOV ABDUKOMIL RISBEKOVICH

**UCHINCHI TARTIBLI QO'SHMA TIPDAGI STATSIONAR VA
NOSTATSIONAR TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY
MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2025

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.2.DSc/FM178 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti da bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://kengash.mathinst.uz/>) “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jo‘raev To‘xtamurod Jo‘raevich

fizika-matematika fanlari doktori,
professor, O‘zR FA akademigi

Rasmiy opponentlar:

Ashurov Ravshan Radjabovich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Kozhanov Aleksandr Ivanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Fayazov Qudratillo Sadriddinovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil « 04 » mart kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, E-mail: uzbmath@umail.uz, website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (200-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 10 » fevral kuni tarqatildi.
(2025 yil « 10 » fevraldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.Azamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.,
akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Oxirgi yillarda turli tabiat hodisalarini matematik asoslashga intilish ularning matematik modelini o'rganish bilan bog'liqdir. Masalan okeanlarda yuz beradigan sunamilar, katta amplitudali to'lqinlar, suvning yuza qismida chiziqsiz to'lqinlarning tarqalishi, sovuq plazmada gidromagnetik to'lqinlarning tarqalishi va angormonik kristallarda akustik to'lqinlarning tarqalishi kabi jarayonlarning matematik modelini tuzish toq tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan bog'liqligi bu tenglamalarni o'rganish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, elastiklik nazariyasiga oid masalalarni o'rganishda Sen-Venan prinsipi alohida o'ringa ega. Tekislikda elastiklik nazariyasi tenglamalari va elastiklik nazariyasi sistemalari uchun bu muammoni O.A.Oleynik va uning izdoshlari o'zlarining bir qator ishlarida o'rganishgan. Ular tomonidan sohaning geometrik xarakteristikasini e'tiborga olgan holda o'rnatilgan energetik baholar yordamida chegaralanmagan sohada birinchi chegaraviy masalaning o'suvchi funksiyalar sinfida yechimini qurish algoritmini aniqlanishi Sen-Venan prinsipi elastik to'lqinlarning tarqalish jarayonini modellashtirishda universal prinsiplardan biri ekanligini ko'rsatib berdi. O.A.Oleynik va uning izdoshlari tomonidan o'rnatilgan energetik baholar elliptik va parabolik tenglamalar yechimlarining soha chegarasining noregulyar nuqtalari atrofidagi va cheksizlikda joylashgan nuqtalardagi xususiyatlari o'rganish imoniyatini beradi. Ammo bu usullarni faqat ma'lum tipdagi juft tartibli tenglamalar uchun qo'llash mumkin.

Hozirgi kunda toq tartibli tenglamalar orqali ifodalanuvchi to'lqinlarning sohaning noregulyar nuqtalari atrofidagi va cheksizlikda joylashgan nuqtalardagi xususiyatlari o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi masalalarni yechish esa uchinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlarini chegaralanmagan sohalarda o'suvchi funksiyalar sinfida qurishga olib kelinadi. Bu borada toq tartibli tenglamalarning yechimlari uchun Sen-Venan prinsipi tipidagi energetik baholarni o'rnatish va ularni chegaraviy masalalar yechimlarini qurishga tadbiiq qilish hozirgi kunning maqsadli ilmiy tadqiqotlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda fundamental fanlar va ularning amaliy tatbiqiga ega bo'lgan yo'nalishlarga e'tibor kuchaytirildi. Shu sababli matematikaning ustuvor yo'nalishlari hisoblangan differensial tenglamalar, matematik fizika tenglamalari, dinamik sistemalar nazariyasi, algebra va funksional tahlil, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, amaliy matematika va matematik modellashtirish sohalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi № PQ-4387-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916-son «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori va 2017 yil 8 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha halqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Toq tartibli tenglamalar va ularning tatbiqlari bo‘yicha tadqiqotlar dunyoning ko‘pgina ilmiy markazlarida va oliy ta‘lim muassalarida olib boriladi, jumladan: Turin politexnika institutida, Osaka universitetida, Tokio universitetida, Oldenburg universitetida, Boshqirdiston davlat universitetida, Voronej davlat universitetida, Kabardino-Bolqor davlat universitetida, Kazan federal universitetida, Moskva davlat universitetida, Rossiya Fanlar Akademiyasi matematika institutida, Novosibirsk davlat universitetida, Sibir federal universitetida, Samara davlat universitetida, Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo‘limi hisoblash matematikasi va matematik geofizika institutida, Rossiya Fanlar Akademiyasi Kabardino-Bolqor ilmiy markazi amaliy matematika va avtomatlashtirish institutida, Qozog‘iston Milliy fanlar akademiyasi matematika va matematik modellashtirish institutida.

Oxirgi yillarda toq tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimlarini qurishga doir tadqiqotlar doirasida qator dolzarb masalalar yechilgan. Jumladan, uchinchi tartibli qo‘shma tipdagi tenglamalar uchun korrekt chegaraviy masalalarning klassifikatsiyasi va ularning umumlashgan yechimlarini qurish usullari ishlab chiqilgan (Novosibirsk davlat universiteti, Rossiya), Kortevega-De-Friz tenglamalari va uning umumlashgan tenglamasi Zaxarov-Kuznesov tenglamalari uchun Koshi va aralash masalalarning umumlashgan va regulyar yechimlarini qurish usullari ishlab chiqilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya), Psevdo-elliptik tenglamalarning regulyar yechimlarini qurish usullari ishlab chiqilgan (Torino universiteti, Italiya).

Dunyoda bugungi kunga kelib toq tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning regulyar va umumlashgan yechimlarini ko‘p o‘lchovli sohalarda qurish usullarini ishlab chiqish va bu yechimlarning xususiyatlarini cheksiz uzoqda joylashgan nuqtalarda hamda noregulyar nuqtalar atrofida tadqiq qilish va yechimning asimptotik xususiyatlarini aniqlashga doir ustivor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. 1855 yilda Saint-Venant elastiklik nazariyasi masalalarini o‘rganish jarayonida mazkur nazariyada juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan va keyinchalik Sen-Venan prinsipi deb nom olgan

prinsipni ifodaladi. Keyinchalik elastik nazariyasi tenglamalari va sistemalari uchun Sen-Venan prinsipi tipidagi energetik baholar o‘rnatish kabi masalalar bilan A.E.H.Love, R.Von-Mises, Ye.Sternberg, G.Horvay kabi olimlar ishlarida o‘rganilgan bo‘lib, 1965 yilda R.A.Toupin birinchi bo‘lib Sen-Venan prinsipining aniq matematik ifodasini va isbotini berdi. U anizotrop silindrning bir tomoni o‘zaro muvozanatlashuvchi kuchlar bilan yuklangan, sirtning qolgan qismi esa yuklanishdan ozod etilgan amaliy masalani qaragan edi. Sen-Venan prinsipi uchun yanada aniqroq va umumiyroq natijalarni olish maqsadida J.K.Knowles chegaralangan yassi sohada elastiklik nazariyasining asosiy masalasini tadqiq etgan va $E(z) \leq 2E(0) \exp\left(-\frac{kz}{b}\right)$. ko‘rinishdagi muhim tengsizlik o‘rinli

bo‘lishini isbotlagan, bu yerda $k = \pi \left[2^{-1}(\sqrt{2} - 1) \right]^{\frac{1}{2}}$, $E(z)$ –energiya bo‘lib u $\Omega(z) = \Omega \cap \{x : x_1 > z\}$; $b = \max_{x_1 \geq 0} x_2$, $(x_1, x_2) \in \Omega$ sohada jamlangan. Keyinroq

J.N.Flavin tashqi kuchlar qo‘yilgan joydan uzoqlashganda jism shaklining o‘zgarishini va bu kuchlarning ikki chetga qo‘yilishi mumkinligini e‘tiborga olmagan holda k kattalikning qiymatiga yanada aniqlik kiritishga erishgan.

Tekislikdagi elastiklik nazariyasining tenglamalari va sistemalari uchun O.A.Oleynik va uning izdoshlari tomonidan topilgan baholarda sohaning geometrik xarakteristikasi e‘tiborga olingan va chegaralanmagan sohada birinchi chegaraviy masala uchun yagonalik teoremasi isbotlangan hamda o‘rnatilgan aprior baholarga asoslangan holda chegaradagi noregulyar nuqtalar va cheksizlikda joylashgan nuqtalar atrofida yechimning xususiyati o‘rganilgan. Elliptik tenglamalar yechimlarining soha chegarasining noregulyar nuqtalari atrofidagi va cheksizlikda joylashgan nuqtalardagi asimptotik xossalari V.A.Kondratev, V.G.Mazyra, B.A.Plamenskiy boshqalarning ishlarida ham o‘rganilgan.

Qo‘shma tipdagi tenglamalar yechimlari uchun soha chegarasining noregulyar nuqtalari atrofidagi va cheksizlikda joylashgan nuqtalardagi asimptotik xossalari o‘rganish kabi masalalar hozirgi kunga qadar o‘z yechimini topmagan, chunki buning zarur bo‘lgan energetik baholar o‘rnatilmagan. Xususiyl hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimlarining xossalari cheksizlikda va noregulyar nuqtalar atrofida o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan lokal baholarning toq tartibli qo‘shma tipdagi tenglamalarning yechimlari uchun olinmaganligi bu sohada hozirgi vaqtda ham muammolar borligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiyadagi tadqiqot ishlari OT-F-4-55 “Ko‘p o‘lchovli sohalarda qo‘shma tipdagi xususiyl hosilali toq tartibli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlari”, (2012-2016) OT-F4-16 “Optimal boshqaruv masalalari va graflarda differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar nazariyasini ishlab chiqish” (2017-2020) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uchinchi tartibli qo'shma tipdagi statsionar va nostatsionar tenglamalar uchun qo'yilgan chegaraviy masalalarning yechimi mavjud bo'ladigan sinflarni sohaning geometrik xarakteristikasiga bog'liq holda aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Uchinchi tartibli tenglamaning fundamental yechimlarining potentsiallarining xossalarini o'rganish va ular yordamida chegaraviy masalalarning klassik yechimlarini qurish.

Chegaralanmagan sohada uchinchi tartibli qo'shma tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlarining yagonalik sinflarini sohaning geometrik xossalariga bog'liq holda aniqlash.

Uchinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumlashgan yechimlari uchun uning cheksizlikda asimptotik xossalarini o'rganishga yordam beruvchi maxsus energetik baholar o'rnatish.

Chegaralanmagan sohada uchinchi tartibli qo'shma tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlarining sohaning geometrik xarakteristikalariga bog'liq holda o'suvchi funksiyalar sinfida qurish.

Uchinchi tartibli qo'shma tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumlashgan yechimlari uchun lokal baholar o'rnatish.

Uchinchi tartibli qo'shma tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumlashgan yechimlarining va hosilalarining cheksizlikdagi asimptotik xossalarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti. Toq tartibli statsionar va nostatsionar xususiy hosilali differensial tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti Energetik baholar o'rnatish usullari, matematik fizika tenglamalar nazariyasi, matematik va funksional tahlil nazariyasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada Galyorkin usuli, integral tengsizliklar usullari, potentsiallar usuli, funksional analiz usullari hamda chiziqli differensial operatorlar nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uchinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun Koshi masalasining va nolokal masalaning yechimi qurilgan;

qo'shma tipdagi uchinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning umumlashgan yechimlarining yagonalik sinflari sohaning geometrik xarakteristikasiga bog'liq holda aniqlangan;

chegaraviy masalalarning cheksizlikda o'suvchi funksiyalar sinfidagi umumlashgan yechimlari qurilgan va ular uchun energetik va lokal baholar o'rnatilgan;

uchinchi tartibli qo'shma tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumlashgan yechimlarining va hosilalarining cheksizlikdagi asimptotik xossalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi sohaning geometrik xossalarini e'tiborga olgan holda toq tartibli qo'shma tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimlari qurish va yechimlarning asimptotik xossalarini o'rganish usullari bayon ishlab chiqilganidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi potentsiallarning xossalari o'rganishda, o'suvchi funksiyalar sinfidagi yechimlarni qurishda, energetik va lokal baholarni o'rnatishda matematik fizika, differensial tenglamalar, funksional va matematik tahlil usullaridan hamda maxsus funksiyalar nazariyasidan foydalanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati ishda olingan natijalardan xususiy hosilali toq tartibli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar nazariyasini qurishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularni xususiy hosilali toq tartibli differensial tenglamalar bilan tavsiflanadigan amaliy masalalarga tatbiq etish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uchinchi tartibli qo'shma tipdagi statsionar va nostatsionar tenglamalar bilan bog'liq bo'lgan natijalar asosida:

nostatsionar tenglamalarga doir olingan natijalar, fundamental yechim potentsialining xossalari va ularga Abel almashtirishining tatbiqlari hamda bu tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlarini topish uchun ishlab chiqilgan Grin funksiyasini qurish va yechimni potentsiallar ko'rinishida yozish usullaridan AAAA-A19-119072290002-9 raqamli "Kamchatkadagi tabiiy ofatlar - yer qimirlashlari va vulqonlarning otilishlari" mavzusidagi xorijiy loyihada matematik fizikaning nolokal masalalarini yechishda foydalanilgan (Vitus Bering nomidagi Kamchatka davlat universitetining 2021 yil 24 maydagi №267-02-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi matematik fizikaning noklassik tenglamalari uchun nolokal masalalarning bir qiymatli yechimini topish imkonini bergan;

uchinchi tartibli qo'shma tipdagi statsionar tenglamaga doir o'rnatilgan energetik va lokal baholar hamda bu tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimlarini aprior baholash usullaridan "Yer haqidagi matematik modellarni yaratish, tadqiq qilish va identifikatsiyalash usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida hamda RFFI 16-01-00729 raqamli "Qovushoq silliq muhitlarda minerallashgan aralashmalar filtratsiyasini matematik modellashtirish" mavzusidagi xorijiy loyihada anizotrop suyuqliklarda relaksion jarayonlar tajribalari natijalarini asoslashda foydalanilgan (Hisoblash matematikasi va matematik geofizika institutining 2021 yil 16-dekabrda №15301/2-01-27-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi anizotrop suyuqliklarda relaksion jarayonlarni aprior baholash imkonini bergan;

uchinchi tartibli qo'shma tipdagi tenglama yechimlari uchun o'rnatilgan Sen-Venan tipidagi prinsip va uni o'rnatish usullaridan OT-F4-04(05) raqamli "Chiziqsiz evolyusion matritsaviy tenglamalarga spektral usullarning tatbiqi, Yurak-tomir sistemasi biomexanikasi" mavzusidagi fundamental loyihada anizotrop suyuqliklarda jarayonlarni tadqiq qilishdagi tajribalarning natijalarini asoslashda foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2021 yil 11-dekabrda №04-279/2-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi anizotrop suyuqliklarda ro'y beradigan jarayonlarni to'liq asoslash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish, to'rtta bob va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning kirish qismida o'rganilgan mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflagan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy tadbirlari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida qo'shma tipdagi uchinchi tartibli nostatsionar tenglama fundamental yechimlarining potentsiallari o'rganilib, bu tenglama uchun chegaraviy masalalarning korrektiligi tekshirilgan hamda Koshi masalasi o'rganilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafda

$$Lu \equiv \sum_{i=1}^n \frac{\partial^3 u}{\partial x_i^3} - \frac{\partial u}{\partial t} = 0 \quad (1)$$

tenglamaning fundamental yechimlari va potentsiallarining xossalari $D = \mathbb{R}^n \times (0, T)$ sohada o'rganilgan

$$\begin{aligned} I_{02}(x_1, \dots, x_n, t) &= \\ &= \int_0^t \int_{\mathbb{R}^{n-1}} \frac{\partial^2}{\partial \xi_1^2} U_0(x_1 - x_1^0, x_2 - \xi_2, \dots, x_n - \xi_n; t - \tau) \alpha(\xi_2, \dots, \xi_n, \tau) d\xi_2 \dots d\xi_n d\tau, \\ I_{i2}(x_1, \dots, x_n, t) &= \\ &= \int_0^t \int_{\mathbb{R}^{n-1}} \frac{\partial^2}{\partial \xi_1^2} U_i(x_1 - x_1^0, x_2 - \xi_2, \dots, x_n - \xi_n; t - \tau) \alpha_i(\xi_2, \dots, \xi_n, \tau) d\xi_2 \dots d\xi_n d\tau, i = \overline{1, n}, \end{aligned}$$

$$J_2(x_1, \dots, x_n, t) = \int_0^t \int_{\mathbb{R}^{n-1}} V_{\xi_1 \xi_1}(x_1 - x_1^0, x_2 - \xi_2, \dots, x_n - \xi_n; t - \tau) \alpha(\xi_2, \dots, \xi_n, \tau) d\xi_2 \dots d\xi_n d\tau.$$

Bu yerda

$$U_0(x_1 - \xi_1, \dots, x_n - \xi_n; t - \tau) = \frac{1}{(t - \tau)^{n/3}} f\left(\frac{x_1 - \xi_1}{(t - \tau)^{1/3}}\right) \cdot \dots \cdot f\left(\frac{x_n - \xi_n}{(t - \tau)^{1/3}}\right), \quad x_i \neq \xi_i, \quad t > \tau,$$

$$U_i(x_1 - \xi_1, \dots, x_n - \xi_n; t - \tau) = \frac{1}{(t - \tau)^{n/3}} f\left(\frac{x_1 - \xi_1}{(t - \tau)^{1/3}}\right) \cdot \dots \cdot f\left(\frac{x_{i-1} - \xi_{i-1}}{(t - \tau)^{1/3}}\right) \varphi\left(\frac{x_i - \xi_i}{(t - \tau)^{1/3}}\right) f\left(\frac{x_{i+1} - \xi_{i+1}}{(t - \tau)^{1/3}}\right) \cdot \dots \cdot f\left(\frac{x_n - \xi_n}{(t - \tau)^{1/3}}\right), \quad x_i > \xi_i, \quad x_j \neq \xi_j, \quad t > \tau, \quad i = \overline{1, n}, \quad j = \overline{1, n}, \quad i \neq j, \quad i + j = n,$$

$$V(x_1 - \xi_1, \dots, x_n - \xi_n; t - \tau) = \frac{1}{(t - \tau)^{n/3}} \varphi\left(\frac{x_1 - \xi_1}{(t - \tau)^{1/3}}\right) \cdot \dots \cdot \varphi\left(\frac{x_n - \xi_n}{(t - \tau)^{1/3}}\right), \quad x_i > \xi_i, \quad t > \tau,$$

bu yerda

$$f(z) = \int_0^\infty \cos(\lambda^3 - \lambda z) d\lambda,$$

$$\varphi(z) = \int_0^\infty [\exp(-\lambda^3 - \lambda z) + \sin(\lambda^3 - \lambda z)] d\lambda, \quad z = \frac{x - \xi}{(t - \tau)^{1/3}}$$

funksiyalar Eyri funksiyasi deb atalib, quyidagi tenglamani qanoatlantiradi

$$p''(z) + \frac{z}{3} p(z) = 0.$$

$f(z)$, $\varphi(z)$ funksiyalar uchun quyidagi munosbatlar o'rinli

$$p^{(n)}(z) \approx O\left(c_n^+ z^{\frac{n-1}{4}} \sin\left(\frac{2}{3} z^{\frac{3}{2}}\right)\right) \text{ pri } z \rightarrow \infty,$$

$$p^{(n)}(z) \approx O\left(c_n^- |z|^{\frac{n-1}{4}} \exp\left(-\frac{2}{3} |z|^{\frac{3}{2}}\right)\right) \text{ pri } z \rightarrow -\infty,$$

c_n^+, c_n^- – const.

$$\int_{-\infty}^0 f(z) dz = \pi, \quad \int_{-\infty}^0 f(z) dz = \frac{\pi}{3}, \quad \int_0^\infty f(z) dz = \frac{2\pi}{3}, \quad \int_0^\infty \varphi(z) dz = 0,$$

1-lemma. Faraz qilamiz, $\alpha(x_2, \dots, x_n, t) \in C(\overline{K} \times (0, T))$ bo'lsin. U holda

$$\lim_{(x_1, x_2, \dots, x_n, t) \rightarrow (\lambda_2 - 0, x_2, \dots, x_n, t)} I_{02}(x_1, \dots, x_n, t) = \frac{\pi^n}{3} \alpha(x_2, \dots, x_n, t),$$

bu yerda $K = \{(x_1, \dots, x_n) : x_1 = \lambda_2, \lambda_1 \leq x_j \leq \lambda_2, j = \overline{2, n}\} \subset \mathbb{R}^{n-1}$, .

2-lemma. Faraz qilamiz, $\alpha(x_2, \dots, x_n, t) \in C^1(\overline{K} \times (0, T))$ bo'lsin. U holda

$$\lim_{(x_1, x_2, \dots, x_n, t) \rightarrow (\lambda_1 + 0, x_2, \dots, x_n, t)} I_{02}(x_1, \dots, x_n, t) = -\frac{2\pi^n}{3} \alpha(x_2, \dots, x_n, t),$$

$$\lim_{(x_1, x_2, \dots, x_n, t) \rightarrow (\lambda_1 + 0, x_2, \dots, x_n, t)} I_{i2}(x_1, \dots, x_n, t) = 0,$$

$$\lim_{(x_1, x_2, \dots, x_n, t) \rightarrow (\lambda_1 + 0, x_2, \dots, x_n, t)} J_2(x_1, \dots, x_n, t) = 0,$$

bu yerda $K = \{(x_1, \dots, x_n) : x_1 = \lambda_1, \lambda_1 \leq x_j \leq \lambda_2, j = \overline{2, n}\} \subset R^{n-1}$.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafda (1) tenglama

$$u(x_1, x_2, \dots, x_n, 0) = u_0(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

1-teorema. Faraz qilamiz, $\varphi(x_1, \dots, x_n)$ funksiya chegaralangan ixtiyoriy $D = \{(x_1, \dots, x_n) : a \leq x_i \leq b, i = \overline{1, n}\}$, $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada uzluksiz bo'lib, variatsiyasi

chegaralangan bo'lsin. Shu bilan birga $|y|^{\frac{3}{4} + \delta_1} \psi(y)$ funksiyaning variatsiyasi ham $y < a_0$, $\forall a_0$, $a_0 = \text{const}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha nuqtalarda chegaralangan bo'lsin. Bundan tashqari $x_i \rightarrow \infty$, $x_j < a$, $k = \overline{1, n-1}$ bo'lganda

$$u_0(x_1, \dots, x_n) \approx O\left(\prod_{j=1}^k \psi(x_j) \exp\left\{\text{const} \sum_{i=k+1}^n |x_i|^{\frac{3}{2} - \delta_2}\right\}\right) \text{ munosabat; } x_i \rightarrow \infty, i = \overline{1, n}$$

bo'lganda $u_0(x_1, \dots, x_n) \approx O\left(\exp\left\{\text{const} \sum_i |x_i|^{\frac{3}{2} - \delta_2}\right\}\right)$; $x_j < a$, $j = \overline{1, n}$ bo'lganda esa

$$u_0(x_1, \dots, x_n) \approx O\left(\prod_j \psi(x_j)\right) \text{ munosabat o'rinli bo'lsin. Bu yerda } 0 < \delta_1 < 1, 0 < \delta_2 < 1$$

. U holda

$$u(x_1, \dots, x_n, t) = \frac{1}{\pi^n} \int_{\mathbb{R}^n} U(x_1 - \xi_1, \dots, x_n - \xi_n; t) u_0(\xi_1, \dots, \xi_n) d\xi_1 \dots d\xi_n \quad (2)$$

funksiya $t > 0$ sohada (1) tenglamani va

$$\lim_{(x_1, \dots, x_n, t) \rightarrow (x_1^0, \dots, x_n^0, +0)} u(x_1, \dots, x_n, t) = u_0(x_1^0, \dots, x_n^0).$$

shartni qanoatlantiradi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafda

$$\frac{\partial^3 u}{\partial x^3} + \frac{\partial^3 u}{\partial y^3} - \frac{\partial u}{\partial t} = 0, \quad (3)$$

tenglama $\Omega = \{(x, y, t) : 0 < x < 1, 0 < y < 1, 0 < t \leq T\}$ sohada

$$u(x, y, 0) = \alpha u(x, y, T), \quad \alpha = \text{const}, (x, y) \in \Omega_0 \quad (4)$$

$$\alpha_1(y, t) u(0, y, t) + \alpha_2(y, t) u_{xx}(0, y, t) = \varphi_1(y, t), \quad (5)$$

$$u_x(0, y, t) = \varphi_2(y, t), \quad 0 \leq y \leq 1, 0 \leq t \leq T,$$

$$\alpha_3(y, t) u(1, y, t) + \alpha_4(y, t) u_x(1, y, t) + \alpha_5(y, t) u_{xx}(1, y, t) = \varphi_3(y, t), \quad 0 \leq y \leq 1, 0 \leq t \leq T, \quad (6)$$

$$\beta_1(x,t)u(x,0,t) + \beta_2(x,t)u_{yy}(x,0,t) = \psi_1(x,t), \quad (7)$$

$$u_y(x,0,t) = \psi_2(x,t), \quad 0 \leq x \leq 1, \quad 0 \leq t \leq T,$$

$$\beta_3(x,t)u(x,1,t) + \beta_4(x,t)u_x(x,1,t) + \beta_5(x,t)u_{xx}(x,1,t) = \psi_3(x,t), \quad 0 \leq x \leq 1, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (8)$$

chegaraviy shartlar bilan o'rganilib, quyidagi teoremlar isbotlangan:

2-teorema. Faraz qilamiz, $e^{mT} - \alpha^2 \geq 0, m < 0$ tengsizlik o'rinli bo'lib, quyidagi

$$a) \alpha_2(y,t) \neq 0, \alpha_5(y,t) \neq 0, 2\alpha_3(y,t)\alpha_5(y,t) - \alpha_4^2(y,t) \geq 0,$$

$$\frac{\alpha_3(y,t)}{\alpha_5(y,t)} + \frac{1}{2} \geq 0, \frac{\alpha_1(y,t)}{\alpha_2(y,t)} \leq 0, \quad 0 \leq y \leq 1, \quad 0 \leq t \leq T,;$$

$$b) \beta_2(x,t) \neq 0, \beta_5(x,t) \neq 0, 2\beta_3(x,t)\beta_5(x,t) - \beta_4^2(x,t) \geq 0,$$

$$\frac{\beta_3(x,t)}{\beta_5(x,t)} + \frac{1}{2} \geq 0, \frac{\beta_1(x,t)}{\beta_2(x,t)} \leq 0, \quad 0 \leq y \leq 1, \quad 0 \leq t \leq T.$$

shartlar bajarilsin. U holda (3)-(8) masala bittadan ortiq yechimga ega bo'lmaydi.

3-teorema. Faraz qilamiz,

$$\left. \begin{aligned} \alpha_1(y,t), \alpha_2(y,t), \varphi_1(y,t) &\in C_{y,t}^{0,1}(\overline{\Omega}(x=0)), \\ \beta_1(y,t), \beta_2(y,t), \psi_1(x,t) &\in C_{x,t}^{0,1}(\overline{\Omega}(y=0)), \\ \alpha_3(y,t), \alpha_4(y,t), \alpha_5(y,t), \varphi_3(y,t) &\in C_{y,t}^{0,1}(\overline{\Omega}(x=1)), \\ \beta_3(x,t), \beta_4(y,t), \beta_5(x,t), \psi_3(x,t) &\in C_{x,t}^{0,1}(\overline{\Omega}(y=1)) \\ \varphi_2(y,t) &\in C(\overline{\Omega}_1), \quad \psi_2(x,t) \in C(\overline{\Omega}(y=0)). \end{aligned} \right\}$$

munosabatlar o'rinli bo'lib, 2-teoremaning shartlari bajarilsin. U holda (3)-(8) masala yagona yechimga ega bo'lib, $u(x,y,t) \in C_{x,y,t}^{3,3,1}(\Omega) \cap C_{x,y,t}^{2,2,0}(\overline{\Omega})$ bo'ladi.

Birinchi bobning to'rtinchi paragrafda A.I.Kojanov tomonidan olingan natijalar keltirilgan bo'lib, unda chegaralangan D sohada qo'shma tipdagi uchinchi tartibli

$$Lu \equiv lAu + Bu = f(x) \quad (9)$$

tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning umumlashgan yechimlarini qurish usuli ishlab chiqilgan.

$$\text{Bu yerda} \quad lu = l_0u + \alpha(x)u, \quad l_0u = \alpha^k(x)u_{x_k},$$

$$Au = a^{ij}(x)u_{x_i x_j} + a^i(x)u_{x_i} + a(x)u, \quad Bu = b^{ij}(x)u_{x_i x_j} + b^i(x)u_{x_i} + b(x)u.$$

Bu yerda va keyinchalik tenglamaning barcha $a^{ij}(x), a^i(x), \dots$ koeffitsientlari $x \in \overline{D}$ nuqtalarda cheksiz marta differensiallanuvchi bo'lib, yig'indi qaytariluvchi indekslar bo'yicha amalga oshiriladi.

Ikkinchi bobda Sen-Venan prinsipi tipdagi energetik baholar yordamida qo'shma tipdagi uchinchi tartibli statsionar va nostatsionar tenglamalarning umumlashgan yechimlarining yagonalik sinflari sohaning geometrik

xarakteristikasiga bog‘liq holda aniqlangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafda (9) tenglamaning

$$u|_{\sigma_1 \cup \sigma_0 \cup \sigma_2} = 0, \quad l_0 u|_{\sigma_1} = 0 \quad (10)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi masalaning umumlashgan yechimlari uchun $\Omega = \{x : x_1 > 0\}$ sohada Sen-Venan prinsipi tipidagi energetik baholar o‘rnatilgan. Bu yerda $\sigma_0 = \{x \in \Gamma : \alpha^k(x) v_k(x) = 0\}$, $\sigma_1 = \{x \in \Gamma : \alpha^k(x) v_k(x) > 0\}$, $\sigma_2 = \{x \in \Gamma : \alpha^k(x) v_k(x) < 0\}$, $\Gamma = \partial\Omega$. Bu prinsip yordamida (9), (10) chegaraviy masala yechimlarining yagonalik sinflari Ω sohaning geometrik xarakteristikasiga bog‘liq holda aniqlangan.

1-ta’rif. Agar $u(x) \in H(\Omega_\tau)$, $\Omega_\tau = \{x : 0 < x_1 < \tau\}$ funksiya va $v = 0$ $S_\tau = \Omega \cap \{x : x_1 = \tau\}$ shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $v(x) \in E(\Omega_\tau)$ funksiya uchun

$$a(u, v) = \int_{\Omega_\tau} f v dx$$

ayniyat o‘rinli bo‘lsa, u holda $u(x)$ funksiya (9) tenglamaning $l_0 u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$ i

$u|_{\sigma_{1,\tau} \cup \sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{2,\tau}} = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi deb ataladi.

Bu yerda $E(\Omega_\tau) = \left\{ v : v \in C^2(\overline{\Omega_\tau}), v|_{\partial\Omega_\tau} = 0, l_0 v|_{\sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{2,\tau} \cup \sigma_{1,\tau}^h} = 0 \right\}$;
 $\sigma_{1,\tau}^h = \sigma_{1,\tau} \setminus \sigma_{1,h,\tau}$, $\sigma_{1,h,\tau} = \left\{ x \in \sigma_{1,\tau} : \rho(x, \partial\sigma_{1,\tau}) > h \right\}$, $h > 0$,
 $\sigma_{0,\tau} = \left\{ x \in \Gamma_\tau : \alpha^k(x) v_k(x) = 0 \right\}$, $\sigma_{1,\tau} = \left\{ x \in \Gamma_\tau : \alpha^k(x) v_k(x) > 0 \right\}$,
 $\sigma_{2,\tau} = \left\{ x \in \Gamma_\tau : \alpha^k(x) v_k(x) < 0 \right\}$, $\Gamma_\tau = \Gamma \cap \{x : x_1 < \tau\}$,

$$a(u, v) = \int_{\Omega_\tau} \left[\alpha^k a^{ij} u_{x_i} v_{x_j x_k} + (\alpha^k a^{ij})_{x_j} u_{x_i} v_{x_k} - \alpha^k a^i u_{x_i} v_{x_k} - c^{ij} u_{x_i} v_{x_j} \right] dx +$$

$$+ \int_{\Omega_\tau} \left[(c_{x_j}^{ij} - \alpha^i a - c^i) u v_{x_i} + (c - c_{x_i}^i + c_{x_i x_j}^{ij}) u v \right] dx.$$

$H(\Omega_\tau) - E(\Omega_\tau)$ to‘planning

$$\|u\|_{H(\Omega_\tau)} = \left\{ \int_{\Omega_\tau} (d^{ij} u_{x_i} u_{x_j} + u^2) dx + \int_{\sigma_{1,\tau}} \alpha^k v_k a^{ij} u_{x_i} u_{x_j} ds \right\}^{\frac{1}{2}}$$

norma bo‘yicha ta’ldirmasi.

Bu paragrafda (9), (10) masala yechimlari uchun quyidagi teoremlar isbot qilingan

4-teorema. (Sen-Venan prinsipining analogi) Faraz qilamiz, $d_1^{ij} \xi_i \xi_j > d_{11} |\xi|^2$, $d_{11} = \text{const} > 0$, $q_1^{ij} \leq q_{10} < 0$, $\forall x \in \Omega_\tau, \forall \xi \in R^n$ bo'lsin. Agar $u(x)$ funksiya (9) tenglamaning Ω_τ sohada $u|_{\sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{1,\tau} \cup \sigma_{2,\tau}} = 0$, $l_0 u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi bo'lib, $f(x) = 0$ bo'lsa, u holda $0 \leq \tau_1 \leq \tau_2$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy τ_1 uchun

$$\int_{\Omega_{\tau_1}} E(u) dx \leq \Phi^{-1}(\tau_1, \tau_2) \int_{\Omega_{\tau_2}} E(u) dx \quad (11)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Bu yerda $E(u) = d^{ij} u_{x_j} u_{x_j} - q^{ij} u^2$, $d^{ij} = c^{ij} - (\alpha^i a^{kj})_{x_k} + \alpha^i a^j + \frac{1}{2} (\alpha^k a^{ij})_{x_k}$.

$q^{ij} = c - \frac{1}{2} c_{x_i}^i + \frac{1}{2} c_{x_i x_j}^{ij} + \frac{1}{2} (\alpha^i a)_{x_i} \leq -q_0 < 0$, $d_0 |\xi|^2 \leq d^{ij} \xi_i \xi_j \leq d_1 |\xi|^2$, bunda

$\forall x \in \Omega \cup \Gamma, \forall \xi \in R^n$, $q_1^{ij} = (\alpha^1 a^{ij})_{x_i x_j} - (\alpha^1 a^i)_{x_j} - c_{x_i}^{i1} - c_{x_j}^{1j} + \alpha^1 a - c^1$,

$d_1^{ij} = \alpha^j a^{i1} - \frac{1}{2} \alpha^1 a^{ij}$, $\Phi(x_1, \tau_2)$ funksiya esa

$$\Phi' = \mu(x_1) \Phi, \tau_1 \leq x_1 \leq \tau_2, \Phi(\tau_2, \tau_2) = 1, \Phi'(\tau_2, \tau_2) = 0, \quad (12)$$

masalaning yechimi, $\mu(\tau)$

$$0 < \mu(\tau) \leq \lambda(\tau) \equiv \inf_{v \in N} \left\{ \int_{S_\tau} E(v) dx' \left| \int_{S_\tau} P(v) dx' \right|^{-1} \right\}, \quad x' = (x_2, x_3, \dots, x_n),$$

$$P(v) = \alpha^1 a^{i1} v v_{x_i} + \frac{1}{2} (c^{11} + \alpha^1 a^1 - (\alpha^1 a^{1j})_{x_j}) v^2$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy uzluksiz funksiya. Bu yerda $N - \overline{S_\tau}$ to'planning atrofida differensiallanuvchi va $\overline{S_\tau} \cap \Gamma$ to'plamda nolga teng bo'lgan funksiyalar to'plami.

5-teorema. Faraz qilamiz, $S_\tau = \Omega \cap \{x : x_1 = \tau\}$ to'plam ixtiyoriy $\tau > 0$ larda bo'sh bo'lmagan to'plam, Ω sohada $f(x) = 0$ bo'lib, 4-teorema shartlari bajarilsin va $u(x)$ funksiya (9) tenglamaning $\Omega_\tau, \forall \tau > 0$ sohada $u|_{\sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{1,\tau} \cup \sigma_{2,\tau}} = 0$, $l_0 u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi bo'lsin.

Agar $\tau_m \rightarrow \infty$ ketma-ketlik va qandaydir $d_* = \text{const} > 0$ uchun

$$\int_{\Omega_{\tau_m}} E(u) dx \leq \varepsilon(\tau_m) \Phi(d_*, \tau_m), \quad (13)$$

munosabat o'rinli bo'lsa, u holda Ω sohada $u(x) = 0$ bo'ladi. Bu yerda $\varepsilon(\tau_m) \rightarrow 0, \tau_m \rightarrow \infty$.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafda chegaralanmagan $\Omega \subset R^n = \{x : x_1 > 0\}$ sohada

$$l_0 Au = f(x) \quad (13)$$

tenglamaning

$$u|_{\sigma_1} = 0, \quad l_0 u|_{\sigma_1 \cup \sigma_0 \cup \sigma_2} = 0, \quad (14)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimlari uchun Sen-Venan prinsipining analogi o'rnatilgan. Bu yerda $l_0 u = \alpha^k u_{x_k}$, $Au = a^{ij} u_{x_i} u_{x_j} + a^i u_{x_i} + au$; a^{ij} , a^i , a , α^k , $(i, j, k = (1, 2, \dots, n))$ – o'zgaruvchi sonlar;

$$a^{ij} = a^{ji}, \quad a_0 |\xi|^2 \leq a^{ij} \xi_i \xi_j \leq a_1 |\xi|^2, \quad \forall \xi \in R^n, \quad \sum_{k=1}^n [\alpha^k]^2 \neq 0.$$

Bu prinsip yordamida (13), (14) chegaraviy masala yechimlarining yagonalik sinflari Ω sohaning geometrik xarakteristikasiga bog'liq holda aniqlangan.

2-ta'rif. Agar $u(x) \in H(\Omega_\tau)$, $\Omega_\tau = \{x : 0 < x_1 < \tau\} \subset \Omega$ funksiya va ixtiyoriy $v \in W_2^1(\Omega_\tau)$ funksiya uchun

$$p(l_0 u, v) \equiv \int_{\Omega_\tau} \left[-a^{ij} (l_0 u)_{x_i} v_{x_j} + a^i (l_0 u)_{x_i} v + a(l_0 u)v \right] dx = \int_{\Omega_\tau} f v dx \quad (15)$$

ayniyat o'rinli bo'lsa, u holda $u(x)$ funksiya (13) tenglamaning Ω_τ sohada $u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$ i $l_0 u|_{\sigma_{1,\tau} \cup \sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{2,\tau}} = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi deb ataladi.

Bu

yerda

$$H(\Omega_\tau) = \left\{ u : l_0 u \in W_2^1(\Omega_\tau), l_0 u|_{\Gamma_\tau} = 0, u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0 \right\}, \quad \Gamma_\tau = \Gamma \cap \partial\Omega_\tau, \quad \Gamma = \partial\Omega$$

Bu paragrafda (13), (14) masala yechimlari uchun quyidagi teoremlar isbot qilingan

6-teorema. (Sen-Venan prinsipi analogi) Faraz qilamiz, $a \leq 0$ bo'lsin. Agar $u(x)$ funksiya (13) tenglamaning Ω_τ ($\tau \leq \tau_2$) sohada $u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$, $l_0 u|_{\sigma_{1,\tau} \cup \sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{2,\tau}} = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi bo'lib, $f(x) = 0$ bo'lsa, u holda $0 \leq \tau_1 \leq \tau_2$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy τ_1 uchun

$$\int_{\Omega_{\tau_1}} E(l_0 u) dx \leq \Phi^{-1}(\tau_1, \tau_2) \int_{\Omega_{\tau_2}} E(l_0 u) dx \quad (16)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $E(u) = a^{ij} (l_0 u)_{x_i} (l_0 u)_{x_j} - a(l_0 u)^2$, $a^{ij} = a^{ji}$,

$a_0 |\xi|^2 \leq a^{ij} \xi_i \xi_j \leq a_1 |\xi|^2$, $\forall \xi \in R^n$, $a < 0$, $\Phi(x_1, \tau_2)$ funksiya esa

$$\Phi'(x_1, \tau_2) = -\mu(x_1)\Phi(x_1, \tau_2), \quad \tau_1 \leq x_1 \leq \tau_2, \quad \Phi(\tau_2, \tau_2) = 1, \quad (17)$$

masalaning yechimi, $\mu(\tau)$

$$0 < \mu(\tau) \leq \lambda(\tau) \equiv \inf_{\nu \in N} \left\{ \int_{S_\tau} E(l_0 \nu) dx' \left| \int_{S_\tau} P(l_0 \nu) dx' \right|^{-1} \right\}, \quad x' = (x_2, x_3, \dots, x_n),$$

$$P(l_0 \nu) = -a^{i1} l_0 \nu (l_0 \nu)_{x_i} - \frac{1}{2} a^1 (l_0 \nu)^2$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy uzluksiz funksiya. Bu yerda $N - \bar{S}_\tau$ ning atrofida ikki marta differensiallanuvchi va $\bar{S}_\tau \cap \Gamma$ to'plamda $l_0 \nu = 0$ bo'lgan funksiyalar to'plami bo'lib, $l_0 \nu \in C^1(\bar{\Omega}_\tau)$, $\nu|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$, $l_0 \nu|_{\partial\Omega} = 0$.

7-teorema. $S_\tau = \Omega \cap \{x : x_1 = \tau\}$ to'plam ixtiyoriy $\tau > 0$ larda bo'sh bo'lmagan to'plam, Ω sohada $f(x) = 0$, $\alpha^1 \geq 0$, $a \leq 0$. 6-teorema shartlari bajarilib, $u(x)$ funksiya (13) tenglamaning Ω_τ , $\forall \tau > 0$ sohada $u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$, $l_0 u|_{\sigma_{1,\tau} \cup \sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{2,\tau}} = 0$ chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi bo'lsin. Agar $\tau_m \rightarrow \infty$ ketma-ketlik va $d_* = \text{const} > 0$ uchun

$$\int_{\Omega_{\tau_m}} E(l_0 u) dx \leq \varepsilon(\tau_m) \Phi(d_*, \tau_m), \quad (18)$$

munosabat o'rinli bo'lsa, u holda Ω sohada $u(x) = 0$ bo'ladi. Bu yerda $\varepsilon(\tau_m) \rightarrow 0$, $\tau_m \rightarrow \infty$.

8-teorema. $\Omega \subset \{x : x_1 > 0\}$ soha chegaralangan, $S_\tau = \Omega \cap \{x : x_1 = \tau\}$, $\forall \tau \in (0, \tau^0)$, $\tau^0 = \text{const} > 0$ to'plam bo'sh bo'lmasin hamda $a \leq 0$, $f(x) \equiv 0$ bo'lsin. U holda (13) tenglamaning Ω_{τ^0} sohada $u|_{\sigma_{1,\tau}} = 0$, $l_0 u|_{\partial\Omega_{\tau^0} \cap \partial\Omega} = 0$ shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x)$ yechimi uchun quyidagi tengsizlik o'rinli bo'ladi

$$\int_{\Omega_{\tau^0}} (l_0 u)^2 \Lambda(x_1) \Phi(x_1, \tau^0, \varepsilon) dx \leq \int_{\Omega_{\tau^0}} E(l_0 u) \Phi(x_1, \tau^0, \varepsilon) dx \leq \frac{1}{\varepsilon} \int_{\Omega_{\tau^0}} E(l_0 u) dx, \quad (19)$$

gde $\varepsilon = \text{const}$, $0 < \varepsilon < 1$, $\sigma_{1,\tau^0} = \{x \in \partial\Omega_{\tau^0} \cap \partial\Omega : \alpha^k \nu_k\}$.

Bu yerda $\Phi(x_1, \tau_2)$

$$\Phi' = -(1 - \varepsilon) \mu(x_1) \Phi, \quad 0 < x_1 < \tau^0, \quad \Phi(\tau^0, \tau^0, \varepsilon) = 1, \quad (20)$$

masalaning yechimi, $\mu(\tau)$

$$0 < \mu(\tau) \leq \lambda(\tau) \equiv \inf_{\nu \in N} \left\{ \int_{S_\tau} E(l_0 \nu) dx' \left| \int_{S_\tau} P(l_0 \nu) dx' \right|^{-1} \right\},$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy uzluksiz funksiya $N - \bar{S}_\tau$ to'plam atrofida ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi va $l_0 \nu|_{\bar{S}_\tau \cap \Gamma} = 0$ bo'lgan funksiyalar to'plami. Bunda $\inf l_0 \nu \in C^1(\bar{\Omega})$, $\nu|_{\sigma_1} = 0$, $l_0 \nu|_{\partial\Omega} = 0$ shartni qanoatlantiruvchi

barcha ν funksiyalar bo'yicha olinadi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafda

$$Lu \equiv lAu + Bu - u_t = f(x, t) \quad (21)$$

tenglamaning $Q = \Omega \times (0, T)$, $\Omega \subset R_+^n = \{x : x_1 > 0\}$, $0 < T < \infty$ sohada

$$u|_{t=0} = 0, \quad (22)$$

$$u|_{\sigma_0 \cup \sigma_1 \cup \sigma_2} = 0, \quad l_0 u|_{\sigma_1} = 0 \quad (23)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimlari uchun Sen-Venan prinsipi tipidagi energetik baholar o'rnatilgan. Bu yerda

$$\sigma_0 = \tilde{\sigma}_0 \times [0, T], \quad \sigma_1 = \tilde{\sigma}_1 \times [0, T], \quad \sigma_2 = \tilde{\sigma}_2 \times [0, T],$$

$$\tilde{\sigma}_0 = \{(x, t) \in \Gamma : \alpha^k(x, t)v_k(x, t) = 0\}, \quad \tilde{\sigma}_1 = \{(x, t) \in \Gamma : \alpha^k(x, t)v_k(x, t) > 0\},$$

$$\tilde{\sigma}_2 = \{(x, t) \in \Gamma : \alpha^k(x, t)v_k(x, t) < 0\}, \quad \Gamma = \partial Q.$$

3-ta'rif. Agar ixtiyoriy $\tau < \infty$ uchun $u(x, t) \in H(Q_\tau)$ va ixtiyoriy $\nu(x) \in E(Q_\tau)$, $\nu|_{S_\tau} = 0$, $S_\tau = \tilde{s}_\tau \times [0, T]$, $\tilde{s}_\tau = \Omega \cap \{x : x_1 = \tau\}$ funksiyalar uchun

$$a_1(u, \nu) = \int_{Q_\tau} f \nu dx dt, \quad (24)$$

munosabat o'rinli bo'lsa, u holda $u(x, t)$ funksiya (21) tenglamaning $Q_\tau = \Omega_\tau \times (0, T)$ sohada $u|_{t=0} = 0$, $u|_{\sigma_{\tau,0} \cup \sigma_{\tau,1} \cup \sigma_{\tau,2}} = 0$, $l_0 u|_{\sigma_{\tau,1}} = 0$ shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi deyiladi.

Bu yerda

$$a_1(u, \nu) = \int_{Q_\tau} \left[\alpha^k a^{ij} u_{x_i} \nu_{x_j x_k} + (\alpha^k a^{ij})_{x_j} u_{x_i} \nu_{x_k} - \alpha^k a^i u_{x_i} \nu_{x_k} - c^{ij} u_{x_i} \nu_{x_j} \right] dx dt +$$

$$+ \int_{Q_\tau} \left[(c_{x_j}^{ij} - \alpha^i a - c^i) u \nu_{x_i} + (c - c_{x_i}^i + c_{x_i x_j}^{ij}) u \nu - u_t \nu \right] dx dt;$$

$$Q_\tau = \Omega_\tau \times (0, T), \quad \Omega_\tau = \{x : 0 < x_1 < \tau\}, \quad \sigma_{\tau,0} = \tilde{\sigma}_{\tau,0} \times [0, T], \quad \sigma_{\tau,1} = \tilde{\sigma}_{\tau,1} \times [0, T],$$

$$\sigma_{\tau,2} = \tilde{\sigma}_{\tau,2} \times [0, T], \quad \tilde{\sigma}_{\tau,0} = \{x \in \Gamma_\tau : \alpha^k(x)v_k(x) = 0\},$$

$$\tilde{\sigma}_{\tau,1} = \{x \in \Gamma_\tau : \alpha^k(x)v_k(x) > 0\}, \quad \tilde{\sigma}_{\tau,2} = \{x \in \Gamma_\tau : \alpha^k(x)v_k(x) < 0\}; \quad E(Q_\tau)$$

$\Gamma_\tau \times [0, T]$ to'plamda $\nu = 0$ va $\sigma_{0,\tau} \cup \sigma_{2,\tau} \cup \sigma_{1,\tau}^h$, $h > 0$ to'plamda $l_0 \nu = 0$ bo'lgan $\nu \in C_{x,t}^{2,1}(\bar{Q}_\tau)$ funksiyalardan iborat to'plam.

$H(Q_\tau)$ esa $E(Q_\tau)$ to'plamning

$$\|u\|_{H(Q_\tau)} = \left\{ \int_{Q_\tau} (d^{ij} u_{x_i} u_{x_j} + u_t^2 + u^2) dx dt + \int_{\sigma_{1,\tau}} \alpha^k v_k a^{ij} u_{x_i} u_{x_j} ds \right\}^{\frac{1}{2}}.$$

norma bo'yicha to'ldirmasi.

9-teorema. (Sen-Venan prinsipining analogi) Faraz qilamiz, $d_1^{ij} \xi_i \xi_j > d_{11} |\xi|^2$, $d_{11} = \text{const} > 0$, $q_1^{ij} \leq q_{10} < 0$, $\forall (x, t) \in Q_\tau$, $\forall \xi \in R^n$ bo'lsin. Agar $u(x, t)$ funksiya

(21) tenglamaning Q_τ sohada $u|_{t=0}=0$, $u|_{\sigma_{\tau,0} \cup \sigma_{\tau,1} \cup \sigma_{\tau,2}}=0$, $l_0 u|_{\sigma_1}=0$ shartlarni qanoatlantiruvchi umumlashgan yechimi va $f(x,t)=0$, $(x,t) \in Q_\tau$, $x_1 \leq \tau_2$ bo'lsa, u holda $0 \leq \tau_1 \leq \tau_2$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy τ_1 uchun

$$\int_{Q_{\tau_1}} E(u) dx dt \leq \Phi^{-1}(\tau_1, \tau_2) \int_{Q_{\tau_2}} E(u) dx dt \quad (25)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $E(u) = d^{ij} u_{x_j} u_{x_j} - q^{ij} u^2$,

$$q_1^{ij} = (\alpha^1 a^{ij})_{x_i x_j} - (\alpha^1 a^i)_{x_j} - c_{x_i}^{i1} - c_{x_j}^{1j} + \alpha^1 a - c^1 \quad d_1^{ij} = \alpha^j a^{i1} - \frac{1}{2} \alpha^1 a^{ij} \quad \text{bo'lib, } \Phi(x_1, \tau_2)$$

funksiya

$$\Phi' = \mu(x_1) \Phi, \quad \tau_1 \leq x_1 \leq \tau_2, \quad \Phi(\tau_2, \tau_2) = 1, \quad \Phi'(\tau_2, \tau_2) = 0 \quad (26)$$

masalaning yechimi, $\mu(\tau)$

$$0 < \mu(\tau) \leq \lambda(\tau) \equiv \inf_{v \in N} \left\{ \int_{S_\tau} E(v) dx' \left| \int_{S_\tau} P(v) dx' \right|^{-1} \right\}, \quad x' = (x_2, x_3, \dots, x_n),$$

$$P(v) = \alpha^1 a^{i1} v v_{x_i} + \frac{1}{2} (c^{11} + \alpha^1 a^1 - (\alpha^1 a^{1j})_{x_j}) v^2,$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy funksiya. Bu yerda $N - \overline{S_\tau}$ to'planning atrofida differensiallanuvchi va $\overline{S_\tau} \cap \Gamma = \partial Q$ to'plamda nolga teng bo'lgan funksiyalar to'plami.

Ikkinchi bobning to'rtinchi paragrafida (21) tenglama

$G \subset Q = \{(x,t) : T_0 < t < T_1\} \subset R_{x,t}^{n+1}$, sohada

$$u|_{\sigma_0 \cup \sigma_1 \cup \sigma_2} = 0, \quad l_0 u|_{\sigma_1} = 0, \quad (28)$$

chegaraviy shartlar bilan o'rganilgan. Bu yerda $-\infty \leq T_0 \leq t_0 \leq t_1 \leq T_1 \leq \infty$,

$$\Omega_\tau = \{(x,t) \in G : t = \tau\}, \quad \partial G = \Omega_{T_0} \cup \Omega_{T_1} \cup \Gamma, \quad \Omega_{T_0} = \{(x,t) \in \overline{G} : t = T_0\},$$

$$\Omega_{T_1} = \{(x,t) \in \overline{G} : t = T_1\}, \quad \Gamma \subset Q\text{-gipersirt. } \Omega_\tau \text{ ixtiyoriy chekli } \tau \text{ uchun}$$

chegaralangan sohadir.

Agar $T_0 = -\infty$ bo'lsa, u holda Ω_{T_0} -bo'sh to'plam, agar $T_1 = +\infty$ bo'lsa, u

holda Ω_{T_1} -bo'sh to'plam bo'ladi. Bu yerda $\sigma_0 = \{(x,t) \in \Gamma : \alpha^k(x,t) v_k(x,t) = 0\}$,

$$\sigma_1 = \{(x,t) \in \Gamma : \alpha^k(x,t) v_k(x,t) > 0\}, \quad \sigma_2 = \{(x,t) \in \Gamma : \alpha^k(x,t) v_k(x,t) < 0\}.$$

Quyidagi belgilashlar kiritamiz

$$G(t_0, t_1) = G \cap \{(x,t) : t_0 < t < t_1\}, \quad \Gamma(t_0, t_1) = \Gamma \cap \overline{G(t_0, t_1)}$$

$$\sigma_0(t_0, t_1) = \{(x,t) \in \Gamma(t_0, t_1) : \alpha^k(x,t) v_k(x,t) = 0\}$$

$$\sigma_1(t_0, t_1) = \{(x,t) \in \Gamma(t_0, t_1) : \alpha^k(x,t) v_k(x,t) > 0\}$$

$$\sigma_2(t_0, t_1) = \{(x,t) \in \Gamma(t_0, t_1) : \alpha^k(x,t) v_k(x,t) < 0\}$$

$h > 0$ uchun quyidagi to'plamlarni aniqlab olamiz

$$\sigma_{1,h}(t_0, t_1) = \left\{ (x, t) \in \sigma_1(t_0, t_1) : \rho((x, t), \partial\sigma_1(t_0, t_1)) > h \right\},$$

$$\sigma_1^h(t_0, t_1) = \sigma_1(t_0, t_1) \setminus \sigma_{1,h}(t_0, t_1)$$

Faraz qilamiz, $E(G(t_0, t_1)) \cap \Gamma(t_0, t_1)$ to'plamda $\nu=0$ va $\sigma_0(t_0, t_1) \cup \sigma_2(t_0, t_1) \cup \sigma_1^h(t_0, t_1)$ to'plamda $l_0\nu=0$ bo'lgan $\nu \in C_{x,t}^{2,1}(G(t_0, t_1))$ funksiyalardan iborat to'plam bo'lsin.

$H(G(t_0, t_1))$ esa $E(G(t_0, t_1))$ to'plamning

$$\|u\|_{H(G(t_0, t_1))} = \left\{ \int_{G(t_0, t_1)} (d^{ij}u_i u_j + u_t^2 + u^2) dxdt + \int_{\sigma_1(t_0, t_1)} \alpha^k \nu_k a^{ij} u_{x_i} u_{x_j} ds \right\}^{\frac{1}{2}}.$$

norma bo'yicha to'ldirmasidan iborat Gilbert fazrsi bo'lsin.

$$a_1(u, \nu) = \int_{G(t_0, t_1)} \left[\alpha^k a^{ij} u_{x_i} \nu_{x_j x_k} + (\alpha^k a^{ij})_{x_j} u_{x_i} \nu_{x_k} - c^{ij} u_{x_i} \nu_{x_j} \right] dxdt +$$

$$+ \int_{G(t_0, t_1)} \left[(c_{x_j}^{ij} - \alpha^i a) u \nu + (c - c_{x_i}^i + c_{x_j x_j}^{ij}) u \nu - u_t \nu \right] dxdt.$$

4-ta'rif. Agar ixtiyoriy t_0 va t_1 ($t_0 \neq -\infty$, $t_1 \neq +\infty$, $t_0 < t_1$) lar uchun $u(x, t) \in H(G(t_0, t_1))$ bo'lib, ixtiyoriy $\nu(x, t) \in E(G(t_0, t_1))$ funksiya uchun

$$a_1(u, \nu) = \int_{G(t_0, t_1)} f \nu dxdt \quad (29)$$

munosabat o'rinli bo'lsa, u holda $u(x, t)$ funksiya G sohada (21), (28) masalaning umumlashgan yechimi deb ataladi.

10-teorema. (Sen-Venan prinsipining analogi) $u(x, t)$ funksiya G sohada (21), (28) masalaning umumlashgan yechimi va $G(t_0, t_1)$ sohada $f(x, t)=0$ bo'lsin. U holda $t_0 \leq \tau \leq t_1$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy τ uchun

$$\int_{G(\tau, t_1)} E(u) dxdt \leq \Phi^{-1}(\tau, t_0) \int_{G(t_0, t_1)} E(u) dxdt, \quad (30)$$

$$\int_{G(\tau, t_1)} E(u) dxdt \leq \frac{1}{2} \Phi^{-1}(\tau, t_0) \int_{\Omega_{t_0}} u^2(x, t_0) dx, \quad (31)$$

tengsizliklar o'rinli bo'ladi.

$$\text{Bu yerda } E(u) = d^{ij} u_{x_j} u_{x_j} - q^{ij} u^2, \quad \Phi(t, t_0)$$

$$\Phi' = 2\mu\Phi, \quad t_0 \leq t \leq \tau, \quad \Phi(t_0, t_0) = 1 \quad (31)$$

masalaning yechimi, $\mu(t)$ $[t_0, \tau]$ oraliqda

$$0 < \mu(s) \leq \inf_{\nu \in N} \left\{ \int_{\Omega_s} E(\nu) dx \left| \int_{\Omega_s} \nu^2 dx \right|^{-1} \right\},$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy funksiya. $N - \bar{\Omega}_s$ to'plamning atrofida differensiallanuvchi va $\bar{\Omega}_s \cap \Gamma$ to'plamda nolga teng bo'lgan funksiyalar to'plami.

11-teorema. G to'plamda $f(x,t)=0$ bo'lsin. Agar $u(x,t)$ funksiya G to'plamda (21), (28) masalaning umumlashgan yechimi va $m \rightarrow \infty \Rightarrow t_m \rightarrow -\infty$ ketma-ketlik uchun

